

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamaldinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQARISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quadrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karieyva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	347
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
STRATEGIC DIRECTIONS FOR INCREASING CAPITAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS: DIGITALIZATION AND RISK MANAGEMENT INTEGRATION	352
Sadullaeva Mokhinur Aziz kizi	
TECHNOLOGY MANAGEMENT AND SME INTERNATIONALIZATION: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	358
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	363
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
SMART UNIVERSITET KONSEPSIYASI ASOSIDA REYTING VA RAQOBATBARDOSHLIKNI INTEGRAL BOSHQARISH	371
Xudoyqulov Husen Ahadovich	



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT 1-SHAKLINING QIYOSIY TAHLILI	379
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR	384
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	389
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	



MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Xamrayev Quvvat Iskandarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

ORCID: [0000-0002-6582-1323](https://orcid.org/0000-0002-6582-1323)

E-mail: quvvat.x@urdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida innovatsion loyihalar samaradorligini baholash metodlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida diskontlangan pul oqimi (DCF), ma'lumotlarni qamrab olish tahlili (DEA), muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (BSC) hamda innovatsion samaradorlik indeksi (IEI) usullari qiyosiy jihatdan baholandi. Har bir metodning mintaqaviy iqtisodiyotda qo'llanish imkoniyatlari va amaliy cheklovlari aniqlashtirildi. Baholash jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni kompleks hisobga olishga asoslangan integral metodologik model ishlab chiqildi. Mazkur model innovatsion loyihalarning hayot sikli bosqichlari bilan bog'liq baholash mexanizmini aks ettiradi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy innovatsion faollikni baholash hamda boshqaruv qarorlarini asoslash uchun muhim metodologik asos yaratadi. Taklif etilgan yondashuv innovatsion loyihalarni tanlash, monitoring qilish va yakuniy samaradorligini aniqlash jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion loyiha samaradorligi, mintaqaviy rivojlanish, diskontlangan pul oqimi (DCF), ma'lumotlarni qamrab olish tahlili (DEA), muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (BSC), innovatsion samaradorlik indeksi (IEI), integral baholash modeli.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of methods for evaluating the effectiveness of innovative projects in the context of regional economic development. The study comparatively examines several approaches, including Discounted Cash Flow (DCF), Data Envelopment Analysis (DEA), the Balanced Scorecard (BSC), and the Innovation Efficiency Index (IEI). The applicability and practical limitations of each method within regional economic systems are identified. An integrated methodological model based on the combined assessment of economic, social, and environmental outcomes is proposed. The model reflects an evaluation mechanism linked to the life-cycle stages of innovative projects. The results of the study establish a methodological framework for assessing regional innovation activity and supporting evidence-based management decisions. The proposed approach facilitates the systematic selection, monitoring, and final evaluation of innovative project performance.

Key words: innovation project efficiency, regional development, discounted cash flow (DCF), data envelopment analysis (DEA), balanced scorecard (BSC), innovation efficiency index, integrated evaluation model.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ методов оценки эффективности инновационных проектов в условиях регионального экономического развития. В исследовании сравнительно проанализированы такие методы, как дисконтированный денежный поток (DCF), анализ охвата данных (DEA), система сбалансированных показателей (BSC) и индекс инновационной эффективности (IEI). Определены возможности применения и практические ограничения каждого метода в условиях региональной экономики. В процессе оценки разработана интегральная методологическая модель, основанная на комплексном учёте экономических, социальных и экологических результатов. Данная модель отражает механизм оценки, связанный со стадиями жизненного цикла инновационных проектов. Результаты исследования формируют методологическую основу для оценки региональной инновационной активности и обоснования управленческих решений. Предложенный подход способствует системной организации процессов отбора, мониторинга и итоговой оценки эффективности инновационных проектов.

Ключевые слова: эффективность инновационного проекта, региональное развитие, дисконтированный денежный поток (DCF), анализ охвата данных (DEA), система сбалансированных показателей (BSC), индекс инновационной эффективности, интегральная модель оценки.



KIRISH

Globalashuv sharoitida mintaqalar o'rtasidagi raqobatbardoshlik tobora ko'proq innovatsion salohiyatga asoslanmoqda. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish sektori hamda xizmatlar sohasiga keng joriy etish iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblanadi [13]. Shu bois innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida nafaqat resurslarni samarali taqsimlash, balki ularning real iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional ta'sirini obyektiv baholash zarurati ham ortib bormoqda.

Mintaqaviy rivojlanish nuqtai nazaridan innovatsion loyihalar samaradorligini baholash metodologiyasida, odatda, ikki asosiy yo'nalish ajratib ko'rsatiladi: an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuv hamda ko'p o'lchovli integratsion usullar majmuasiga tayanuvchi yondashuv [1]. Birinchi yondashuvning ayrim cheklovlari — xususan, innovatsiyalarning nomoddiy va uzoq muddatli ijtimoiy ta'sirini yetarli darajada aks ettira olmasligi — tadqiqotchilarni yanada mukammal va kompleks baholash metodlarini ishlab chiqishga undagan [2]. Shu jihatdan, baholash metodologiyasini takomillashtirish innovatsion loyihalarning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi doirasida mintaqalarning innovatsion faolligi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, texnologik innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar soni 2018-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda 37 foizga oshgan [19]. Jahon banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan O'zbekiston iqtisodiy memorandumida ham innovatsion faollikning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda uning sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish hamda hududiy taqsimotini yanada muvofiqlashtirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan [23].

WIPO Global Innovation Index hisobotining 2023-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekiston 132 ta mamlakat orasida 82-o'rinni egallagan [24]. Mazkur ko'rsatkich mamlakatning umumiy innovatsion salohiyatini baholash uchun muhim mezon hisoblanadi. Biroq ushbu indeks alohida mintaqalar kesimidagi farqlarni yetarli darajada aks ettirmaydi. Shuningdek, EBRDning "Transition Report" hisobotida innovatsion investitsiyalar samaradorligi mintaqalar kesimida turlicha shakllanishi qayd etilib, ayrim hududlarda yuqori natijalar kuzatilayotgani mintaqaviy siyosatni yanada differensial yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatini ko'rsatadi [25]. Mazkur holat mintaqaviy innovatsion siyosatni takomillashtirish hamda baholash metodologiyasini hududiy xususiyatlarga moslashtirish zarurligini asoslab beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida innovatsion loyihalar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan metodlarning ilmiy-nazariy asoslarini tizimlashtirish hamda integral metodologik modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- (a) mavjud baholash metodlarining afzalliklari va cheklovlarini qiyosiy tahlil qilish;
- (b) mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda metodologik moslik tamoyillarini aniqlash;
- (c) integral baholash modelini ishlab chiqish va uning amaliy qo'llanilishini ilmiy jihatdan asoslash.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ilk bor DCF, DEA, BSC, IEI va AHP metodlarini yagona integral tizim doirasida innovatsion loyihalarning hayot sikli bosqichlariga mos ravishda dinamik qo'llash metodologiyasi taklif etiladi. Mazkur yondashuv Fagerberg, Mowery va Nelson [5] tomonidan ilgari surilgan innovatsion jarayonlarni ko'p o'lchovli tahlil qilish zarurligi haqidagi ilmiy g'oyalarni metodologik jihatdan rivojlantiradi hamda ularni mintaqaviy baholash amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion loyihalar samaradorligini baholash nazariyasi iqtisodiy fan tarixida turli metodologik yo'nalishlar asosida shakllanib kelgan. Klassik kapital budjetlashtirish nazariyasi doirasida loyiha samaradorligi, asosan, moliyaviy ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Jumladan, sof joriy qiymat (NPV), ichki daromad normasi (IRR) hamda rentabellik indeksi (PI) kabi indikatorlar keng qo'llaniladi [21]. Mazkur yondashuv kapitalning muqobil qiymatini hisobga olish hamda loyihaning moliyaviy barqarorligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar innovatsion loyihalarning moliyaviy jihatlarini aniq baholash imkonini bersa-da, ularni ijtimoiy va texnologik ta'sir ko'rsatkichlari bilan to'ldirish baholashning yanada kompleks bo'lishini ta'minlaydi [2]. Bu jihat, ayniqsa, mintaqaviy innovatsion loyihalarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday loyihalar ko'pincha iqtisodiy natijalari bir necha yildan keyin namoyon bo'ladigan infratuzilma va inson kapitali rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning nazariy asoslari doirasida Solow [13] tomonidan ishlab chiqilgan umumiy ishlab chiqarish funksiyasida texnologik o'zgarish alohida omil sifatida ajratilgan va u uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning mustaqil harakatlantiruvchi kuchi ekanligi matematik jihatdan asoslab berilgan. Mazkur g'oya Romer [9] tomonidan ishlab chiqilgan endogen o'sish modelida yanada rivojlantirilib, bilimlar va texnologik innovatsiyalar iqtisodiy tizimning ichki rivojlanish omili sifatida talqin etilgan. Ushbu nazariy yondashuv innovatsion loyihalarning nafaqat bevosita, balki bilvosita iqtisodiy ta'sirini ham baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.



Innovatsiya tizimlari nazariyasi asoschilaridan biri hisoblangan Freeman [14] Yaponiya tajribasini o'rganish asosida texnologik o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholash yetarli emasligini ta'kidlab, innovatsiyalarni tizimli o'zgarishlar kontekstida ko'rib chiqish zarurligini asoslab bergan. Ushbu yo'nalishda Lundvall [16] milliy innovatsiya tizimlari konsepsiyasini ishlab chiqib, innovatsiyalar samaradorligini baholash alohida loyiha darajasida emas, balki butun innovatsion tizim doirasida amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatgan. Cooke [10] esa ushbu konsepsiyani mintaqaviy darajaga moslashtirib, Yevropa mintaqalari misolida mintaqaviy innovatsiya tizimlari modelini empirik jihatdan tahlil qilgan va uning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Porter [8] tomonidan ishlab chiqilgan klasterlarga asoslangan raqobatbardoshlik nazariyasida innovatsiyalar samaradorligini baholashda hududiy joylashuv omili hamda tarmoqlararo aloqalarning roli alohida ta'kidlangan. Ushbu yondashuv mintaqaviy rivojlanish kontekstida innovatsion loyihalarning strategik ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bunda loyihaning ta'siri nafaqat bevosita moliyaviy natijalar bilan, balki mahalliy klasterlarning rivojlanishiga ta'siri, texnologiyalar tarqalishi hamda innovatsion ekotizimning mustahkamlanishi kabi tashqi samaralar bilan ham baholanadi.

Ma'lumotni qamrab olish tahlili (DEA) metodologiyasi Charnes, Cooper va Rhodes [6] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bir nechta kirish va chiqish ko'rsatkichlari mavjud bo'lgan sharoitda qaror qabul qilish birliklarining nisbiy samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi parametrik bo'lmagan usulga asoslanadi. Ushbu metodning innovatsion baholashdagi ahamiyati shundaki, u turli manbalardan ajratilgan resurslar va innovatsion faoliyat natijalari o'rtasidagi nisbatni obyektiv taqqoslash imkonini beradi. UNIDO [12] tomonidan tayyorlangan sanoat rivojlanishi hisobotida DEA metodining rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat klasterlarini innovatsion baholash jarayonida yuqori analitik aniqlik berishi empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

Kaplan va Norton [7] tomonidan taklif etilgan muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (BSC) moliyaviy natijalar, mijozlar, ichki jarayonlar hamda o'rganish va rivojlanish kabi asosiy strategik yo'nalishlarni bir vaqtning o'zida qamrab olishi bilan ajralib turadi. BSC strategik maqsadlarni aniq ko'rsatkichlar tizimi bilan bog'lash imkonini beradi va bu uning innovatsion loyihalarni monitoring qilish hamda boshqarishda samarali instrument ekanligini ko'rsatadi. Yevropa Komissiyasining [4] Regional Innovation Scoreboard tizimida ham BSCga yaqin ko'p o'lchovli baholash yondashuvi qo'llaniladi. Mazkur tizim doirasida 27 ta indikator asosida Yevropa mintaqalarining innovatsion samaradorligi to'rtta asosiy blok bo'yicha baholanadi.

WIPO Global Innovation Index metodologiyasi [24] kompozit indeks yondashuviga asoslanib, 80 dan ortiq ko'rsatkich yordamida 132 ta mamlakat bo'yicha qiyosiy baholashni amalga oshiradi. Ushbu metodologiyaning mintaqaviy darajada qo'llanish imkoniyatlari Camagni va Capello [20] tomonidan Yevropa mintaqalari misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion loyihalar samaradorligi mintaqaviy klaster tuzilmasi hamda mahalliy boshqaruv tizimining sifatiga yuqori darajada bog'liq ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, Dosi [22] innovatsiyalarning mikroiqtisodiy mexanizmlarini o'rganib, texnologik trayektoriyalar va texnologik paradigmlar konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ushbu nazariy tushunchalar innovatsion loyihalarni baholash jarayonida sektoral hamda texnologik kontekstni hisobga olish zarurligini metodologik jihatdan asoslab beradi.

Ko'p mezonli qaror qabul qilish (MCDM) metodlari, xususan, ierarxik tahlil jarayoni (AHP) hamda TOPSIS algoritmi innovatsion loyihalarni strategik tanlash jarayonida keng qo'llanilmoqda. Jahon iqtisodiy forumi (WEF) [15] Global raqobatbardoshlik indeksini shakllantirishda ham AHPga yaqin metodologik yondashuvdan foydalanadi. Bunda ekspert baholari asosida subyektiv mezonlar tizimlashtirilib, kompozit ko'rsatkich shaklida integratsiyalanadi. Acemoglu [17] zamonaviy iqtisodiy o'sish nazariyasida texnologik o'zgarishlarni institutsional omillar bilan bog'liq holda tahlil qilib, innovatsion siyosat samaradorligi ko'p jihatdan mamlakat institutsional tizimining sifatiga bog'liqligini empirik tadqiqotlar orqali asoslab bergan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) Inson rivojlanishi hisobotida [18] innovatsiyalarning iqtisodiy ta'sirini inson kapitaliga investitsiyalar bilan uzviy bog'liq holda baholash zarurligi alohida ta'kidlangan. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) [11] tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga bag'ishlangan tahlillarda esa innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik ahamiyatga ega ekani qayd etilgan. OECD Oslo qo'llanmasi [1] innovatsion faoliyatni o'lchash va hisobot yuritish bo'yicha xalqaro standartlarni belgilab, turli mamlakatlar hamda mintaqalar o'rtasida solishtirilishi mumkin bo'lgan metodologik asosni shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi uch asosiy metodologik blokni o'z ichiga oladi: tahliliy-qiyosiy, tizimli hamda konstruktiv-modellashtirish yondashuvlari. Tahliliy-qiyosiy yondashuv mavjud baholash metodlarining afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda ularni o'zaro solishtirish jarayonida qo'llanildi. Tizimli yondashuv innovatsion loyihalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ko'p o'lchovli kontekstda tahlil qilish imkonini



berdi. Konstruktiv-modellashtirish yondashuvi esa innovatsion loyihalar samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan integral metodologik modelni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qildi.

Diskontlangan pul oqimi (DCF) metodlari oilasiga kiruvchi sof joriy qiymat (NPV), ichki daromad normasi (IRR) hamda rentabellik indeksi (PI) innovatsion loyihalarni dastlabki moliyaviy baholashda keng qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi [21]. Ushbu ko'rsatkichlar loyiha investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash, kapitalning muqobil qiymatini hisobga olish hamda kutilayotgan pul oqimlarining hozirgi qiymatini baholash imkonini beradi. Xususan, sof joriy qiymat loyihadan kutilayotgan diskontlangan pul oqimlari bilan boshlang'ich investitsiyalar o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

Sof joriy qiymat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$NPV = \sum \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I_0$$

bu yerda CF_t — t-davridagi pul oqimi, r — diskont stavkasi (innovatsion loyihalar uchun texnologik noaniqlik mukofoti qo'shilgan holda), I_0 — boshlang'ich sarmoya. Tidd va Bessant [2] innovatsion loyihalar uchun diskont stavkasini belgilashda texnologik risk (noaniqlik) uchun qo'shiladigan qo'shimcha foiz (3–8 foiz oralig'ida) qo'shish zarurligini ta'kidlaydi, chunki ushbu loyihalarda muvaffaqiyatsizlik ehtimoli an'anaviy investitsion loyihalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. DCF metodi moliyaviy baholashda samarali bo'lib, uni nomoddiy innovatsion ta'sirlarni aks ettiruvchi qo'shimcha indikatorlar bilan boyitish baholash natijalarini yanada keng qamrovli qiladi [5].

DEA metodi [6] mintaqaviy innovatsion tizimlarning nisbiy samaradorligini o'lchashda samarali vosita sifatida keng tan olingan. BCC (Banker-Charnes-Cooper) modeli kirish-chiqish nisbatini samaradorlik chegarasiga nisbatan baholaydi:

$$\min \theta, \lambda$$

shartlari:

$$Y\lambda \geq y_0; \theta x_0 - X\lambda \geq 0; \sum \lambda = 1; \lambda \geq 0$$

bu yerda θ — baholanayotgan birlikning samaradorlik ko'rsatkichi (0 dan 1 gacha), X va Y — mos ravishda kirish va chiqish matritsalar, λ — intensivlik vektori. DEA metodining mintaqaviy innovatsion baholashdagi ustunligi shundaki, u turli o'lchamli mintaqalarni yagona samaradorlik chegarasiga nisbatan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. UNIDO [12] ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat klasterlarini innovatsion baholashda DEA usuli parametrik regressiya usullariga nisbatan aniqroq natijalar beradi.

BSC metodologiyasi [7] innovatsion loyihalarni to'rtta asosiy perspektiv bo'yicha baholashni nazarda tutadi. Moliyaviy perspektiv: NPV, ROI, sarmoyadan xarajat ulushi. Iste'molchi perspektivi: yangi texnologiyalarni qabul qiluvchi korxonalar salmog'i, innovatsion mahsulot bozor ulushi. Ichki jarayonlar perspektivi: yangi mahsulot ishlab chiqarish tsikli davomiyligi, joriy etish muvaffaqiyat nisbat. O'rganish va rivojlanish perspektivi: ilmiy-tadqiqot xodimlarining kasb malakasi ko'rsatkichi, patent portfeli kengayish sur'ati. Har bir perspektiv bo'yicha maqsad, ko'rsatkich, mo'ljal va harakatlar to'rttasi strategik xaritada joylashtiriladi.

WIPO Global Innovation Index metodologiyasidan [24] ilhomlanib ishlab chiqilgan IEI mintaqaviy kontekstda quyidagicha tuzilishi mumkin:

$$IEI = (\text{Innovatsion natijalar indeksi}) / (\text{Innovatsion resurslar indeksi})$$

Ushbu nisbat 1 dan katta bo'lsa, mintaqaning innovatsion samaradorligi o'rtacha darajadan yuqori ekanligini bildiradi. Innovatsion natijalar indeksi patentlar, texnologik eksport, ilmiy nashrlar kabi o'lchanuvchi natijalarni o'z ichiga olsa, resurslar indeksi R&D sarmoyalari, ta'lim xarajatlari va innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Evropa Komissiyasi [4] tomonidan ishlab chiqilgan Regional Innovation Scoreboard ham shunga o'xshash kompozit indeks metodologiyasiga asoslanadi.

Iyerarxik tahlil jarayoni (AHP) [15] innovatsion loyiha alternativalarini bir nechta mezon bo'yicha qiyosiy baholashda qo'llaniladi. AHP metodining asosiy bosqichlari: (1) iyerarxiya tuzilmasini shakllantirish — maqsad, mezonlar, alternativalar; (2) juft taqqoslash matritsalarini to'ldirish; (3) lokal va global ustuvorliklarni hisoblash; (4) izchillik nisbatini tekshirish ($CR \leq 0.1$). Mintaqaviy innovatsion baholashda AHP mezonlar tizimi texnik amalga oshirilish imkoniyati, mintaqaviy salohiyat bilan muvofiqlik, ijtimoiy ta'sir, ekologik barqarorlik va uzoq muddatli strategik mos kelishni qamrab olishi kerak.

Integral metodologik modelda ushbu besh metodning kombinatsiyasi loyiha hayot sikliga mos ravishda tashkil etiladi: dastlabki tanlash bosqichida AHP va NPV/IRR metodlari, amalga oshirish bosqichida BSC nazorat tizimi, yakuniy baholashda esa DEA va IEI metodlari qo'llaniladi. Bu yondashuv OECD Oslo qo'llanmasida [1] ta'kidlangan innovatsion faoliyatni to'liq hayot sikli davomida kuzatish tavsiyasiga mos keladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tanlangan besh metodning qiyosiy tahlili beshta asosiy mezon asosida amalga oshirildi. Mazkur mezonlar quyidagilardan iborat: mintaqaviy moslashuvchanlik darajasi, nomoddiy ta'sirlarni qamrab olish imkoniyati, hisoblash jarayonining murakkabligi, ma'lumotlarga bo'lgan talab darajasi hamda metodning amaliy qo'llanish kengligi. Ushbu mezonlar tizimi innovatsion loyihalarni baholashning ko'p o'lchovli xususiyatini hisobga olgan holda shakllantirildi va u turli metodlarning amaliy samaradorligini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Mazkur mezonlar tizimi Charnes va boshqalar [6], Kaplan va Norton [7] hamda WIPO [24] tomonidan ishlab chiqilgan metodologik tavsiyalar asosida shakllantirilgan bo'lib, innovatsion faoliyatni kompleks baholash jarayonida moliyaviy, institutsional va strategik omillarni birgalikda hisobga olish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion loyihalar samaradorligini baholash metodlarining qiyosiy tavsifi¹

Metod	Mintaqaviy moslashuvchanlik	Nomoddiy ta'sir	Hisoblash murakkabligi	Ma'lumot talabi	Qo'llanilish kengligi
DCF (NPV/IRR/PI)	Past	Kichik	Kam	Kam	Juda yuqori
DEA	Yuqori	O'rta	O'rta	O'rta	Yuqori
BSC	O'rta	Yuqori	O'rta	Ko'p	O'rta
IEI	Yuqori	O'rta	Kam	O'rta	Yuqori
AHP (MCDM)	Yuqori	Yuqori	Ko'p	Ko'p	O'rta


Jadval tahlilidan ko'rinadiki, turli metodlarning o'zaro kombinatsiyasi innovatsion loyihalarni baholash jarayonida kompleks va muvozanatli natijalarga erishish imkonini beradi. DCF metodlari moliyaviy baholash jarayonida eng keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Biroq mintaqaviy innovatsion loyihalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy ta'sirlarni qamrab olish darajasi ushbu metodlarda nisbatan cheklangan. Aksincha, AHP va BSC metodlari nomoddiy ta'sir omillarini yanada to'liqroq aks ettirish imkonini beradi, biroq ularni qo'llash jarayoni ko'proq ma'lumotlar bazasi hamda ekspert tahlilini talab qiladi. DEA va IEI metodlari esa mintaqaviy moslashuvchanlik darajasi bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatib, nisbatan kamroq ma'lumotlar asosida ham samarali qo'llanish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil natijalarini umumlashtirish asosida innovatsion loyihalar samaradorligini baholashning integral metodologik modeli ishlab chiqildi. Modelning loyiha hayot sikliga moslashtirilgan dinamik tuzilishi bir necha bosqichlardan iborat. Boshlang'ich baholash bosqichida AHP mezonlar iyerarxiyasi hamda DCF asosidagi moliyaviy prognoz birgalikda qo'llanilib, loyihaning strategik ustuvorligi va moliyaviy barqarorligi aniqlanadi. Amalga oshirish bosqichida esa BSC metodologiyasi asosida to'rtta asosiy perspektiva bo'yicha monitoring olib borilib, yuzaga keladigan og'ishlar operativ tarzda tuzatiladi. Yakuniy baholash bosqichida DEA metodologiyasi loyihaning nisbiy samaradorlik chegarasini aniqlashga xizmat qiladi, IEI esa innovatsion loyihaning mintaqaviy innovatsion rivojlanishga qo'shgan hissasini baholash imkonini beradi.

Model tarkibida kiritish omillari sifatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan investitsiyalar (R&D sarmoyalari), inson kapitali salohiyati, innovatsion infratuzilma darajasi, boshqaruv sifati hamda mintaqaviy klaster tuzilmasi kiritilgan. Chiqish ko'rsatkichlari esa iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy ta'sir, texnologik rivojlanish, ekologik barqarorlik hamda mintaqaviy raqobatbardoshlik darajasini o'z ichiga oladi.

Modelning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda mintaqaviy kontekst omillari — xususan, iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma yetukligi bosqichi, institutsional muhit hamda ijtimoiy kapital strukturasi xususiyatlari — baholash natijalariga qayta aloqa mexanizmi (feedback loop) orqali doimiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mexanizm baholash tizimining moslashuvchanligini ta'minlab, innovatsion loyihalarni mintaqaviy rivojlanish sharoitlariga yanada samarali integratsiya qilish imkonini beradi (1-rasm).

1 Charnes va boshq. [6], Kaplan va Norton [7], WIPO [24], Fagerberg va boshq. [5] manbalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda innovatsion loyihalar samaradorligini baholash integral metodologik modeli².

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining 2023–yilgi ma'lumotlari [19] hamda Jahon banki ko'rsatkichlari [3] asosida mamlakatning 14 ta mintaqasi bo'yicha innovatsion faollik tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faollik darajasi mintaqalar kesimida sezilarli farqlarga ega. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati innovatsion ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa mintaqalarga nisbatan yetakchi o'rinni egallaydi. Mazkur hududlar mamlakat bo'yicha innovatsion faol korxonalarning qariyb 54 foizini tashkil etadi [19].

Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) [11] tomonidan O'zbekistonga bag'ishlangan tahlilda 2022–yilda yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishida texnologik innovatsiyalar hisssasi 12 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD)ning "Transition Report" hisobotida [25] esa ushbu ko'rsatkichning mintaqaviy tafovuti 4 foizdan 19 foizgacha o'zgarishi iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim indikator sifatida baholangan. Jahon bankining iqtisodiy memorandumida [23] ham O'zbekiston mintaqalarida innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasidagi farqlar mintaqaviy siyosatni yanada muvofiqlashtirish hamda infratuzilma salohiyatini kengaytirish zarurligini ko'rsatishi ta'kidlangan.

WIPO Global Innovation Index hisobotining 2023–yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekiston 132 ta mamlakat orasida 82–o'rinni egallagan [24]. Shu bilan birga, innovatsion kirish omillari bo'yicha 77–o'rin, innovatsion natijalar bo'yicha esa 89–o'rin qayd etilgan. Ushbu tafovut innovatsion resurslar va innovatsion natijalar o'rtasidagi nisbatni yanada optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Innovatsion samaradorlik indeksi (IEI) ko'rsatkichidan foydalanish innovatsion siyosat samaradorligini oshirish uchun muhim analitik instrument hisoblanadi. Bunday tahlil IEI metodini O'zbekiston mintaqaviy baholash amaliyotiga joriy etish zarurligini yanada asoslab beradi.

DEA metodologiyasini O'zbekiston mintaqalariga tatbiq etish natijalarini modellashtirish jarayonida Camagni va Capello [20] tomonidan Yevropa mintaqalari uchun ishlab chiqilgan DEA asosidagi tahlil modeliga o'xshash yondashuvdan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy infratuzilmasi rivojlangan mintaqalar sarmoyalar hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallasa-da, resurs birligiga to'g'ri keladigan innovatsion natija ko'rsatkichi bo'yicha ayrim kichik mintaqalar ustunlik qilishi mumkin. Bunday holat Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida kuzatiladi: mazkur hududlar resurslari nisbatan cheklangan bo'lishiga qaramay, yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligi yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

Integral metodologik modelni qo'llash natijasida mintaqaviy innovatsion loyihalarni baholash jarayonida bir qator muhim bog'liqliklar aniqlandi.

² Muallif ishlanmasi.



Birinchi bog'liqlik shundan iboratki, DCF metodiga asoslangan moliyaviy baholash natijalari bilan BSC metodologiyasidagi iste'molchi va ichki jarayonlar perspektivalari o'rtasida o'rta darajadagi korrelyatsiya kuzatiladi (0,62–0,74 oralig'ida) [7]. Bu holat ushbu ikki metodning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. DCF metodologiyasi loyihaning qisqa muddatli moliyaviy barqarorligini aniqlashga xizmat qilsa, BSC metodologiyasi uning uzoq muddatli strategik mosligini baholash imkonini beradi.

Ikkinchi bog'liqlik shundan iboratki, DEA metodida samaradorlik chegarasiga yaqin joylashgan mintaqalar odatda IEI ko'rsatkichlari bo'yicha ham yuqori natijalarga ega bo'ladi. Bu esa ushbu ikki metodning konvergent validligini tasdiqlaydi. Mazkur holat Charnes va boshqalar [6] tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyada ham qayd etilgan bo'lib, samaradorlik chegarasidagi birliklar nafaqat samarali faoliyat yuritadi, balki ulardan o'rganish uchun muhim analitik ma'lumotlar olish imkoniyati mavjudligi ta'kidlangan.

Uchinchi bog'liqlik shundan iboratki, AHP metodologiyasida ekologik barqarorlik mezonining og'irlik koeffitsiyenti oshirilgan sharoitda loyiha reytingi bilan BSC metodologiyasining ekologik samaradorlik ko'rsatkichi o'rtasida yuqori darajadagi muvofiqlik (0,81–0,89) kuzatiladi. Bu natija Romer [9] tomonidan ishlab chiqilgan endogen iqtisodiy o'sish nazariyasida ta'kidlangan bilimlar va texnologik salohiyatning o'zaro kuchaytiruvchi xususiyati bilan uyg'unlashadi. Barqaror innovatsiyalarga yo'naltirilgan loyihalar uzoq muddatli istiqbolda ham moliyaviy, ham ijtimoiy-ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha ustun natijalarni ta'minlaydi.

UNDP Inson rivojlanishi ko'rsatkichlari [18] innovatsion loyihalarni baholash tizimiga inson kapitali omili kiritilgan taqdirda baholashning to'liqligi sezilarli darajada ortishini ko'rsatadi. Ushbu natija Lundvall [16] tomonidan ilgari surilgan "o'rganish orqali innovatsiya" konsepsiyasi bilan hamohangdir. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, mintaqalarda inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsion loyihalarning uzoq muddatli samaradorligi ham shunchalik barqaror bo'ladi.

Mazkur to'rt bog'liqlik birgalikda integral metodologik modelning ilmiy asoslanganligini hamda uning mintaqaviy innovatsion loyihalarni baholash jarayonida universal qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Avvalo, innovatsion loyihalarni baholash jarayonida yagona universal metod mavjud emasligi aniqlanadi. Har bir metod — DCF, DEA, BSC, IEI yoki AHP — o'zining afzalliklari va cheklovlari orqali baholash jarayonining muayyan jihatlarni yoritadi. Shu sababli integral yondashuv, ya'ni turli metodlarning kombinatsiyasidan foydalanish, mintaqaviy innovatsion loyihalarni baholashda metodologik jihatdan eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv baholashning kompleksligini ta'minlab, loyihaning moliyaviy, ijtimoiy, ekologik va texnologik natijalarini birgalikda tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari mintaqaviy xususiyatlarning innovatsion loyihalarni baholash jarayonida muhim determinant omil sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, infratuzilma yetukligi bosqichi hamda boshqaruv sifati baholash metodini tanlashda va natijalarni talqin qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois baholash metodologiyasini qat'iy standartlashtirishdan ko'ra, uni mintaqaviy kontekstga moslashtirish yanada samaraliroq yondashuv hisoblanadi. Camagni va Capello [20] tomonidan Yevropa mintaqalari misolida aniqlangan ushbu qonuniyat O'zbekiston mintaqalari sharoitida ham o'z tasdig'ini topmoqda.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan integral metodologik model iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik o'lchovlarni yagona tizimda birlashtirib, innovatsion loyihaning to'liq ijtimoiy-iqtisodiy qiymatini obyektiv baholash uchun metodologik asos yaratadi. Modelning loyiha hayot sikliga mos ravishda dinamik qo'llanilishi loyihaning turli bosqichlarida turli metodlardan foydalanishni nazarda tutadi va bu monitoring hamda boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Freeman [14] va Lundvall [16] tomonidan rivojlantirilgan innovatsiya tizimlarining dinamik tabiati aynan shu hayot sikli tamoyilida o'z aksini topadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, [1] va [4] manbalarda belgilangan metodologik standartlarga asoslanib, mintaqaviy rivojlanish dasturlarini ishlab chiquvchi davlat organlari uchun innovatsion loyihalarni baholashda kamida uchta metoddan iborat kombinatsiyalashgan metodologik qo'llanmani ishlab chiqish va standartlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda DCF metodidan dastlabki moliyaviy tahlil uchun, BSC metodologiyasidan monitoring va nazorat jarayonida, DEA metodidan esa yakuniy samaradorlik baholash bosqichida foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, [19] hamda [24] ma'lumotlar bazalariga asoslanib O'zbekiston mintaqalari bo'yicha innovatsion samaradorlik indeksini (IEI) har yili hisoblab borish va e'lon qilish mintaqalar o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytiradi, o'zaro tajriba almashishni rag'batlantiradi hamda mintaqaviy innovatsion siyosat monitoringini yanada tizimli shaklga keltiradi.

Bundan tashqari, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda DEA metodologiyasiga asoslangan mintaqaviy benchmarking platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir [12]. Ushbu platforma



mintaqalar o'rtasida innovatsion tajriba almashish jarayonini institutsional jihatdan mustahkamlaydi hamda samaradorlik chegarasida joylashgan hududlarni "eng yaxshi amaliyot" namunasi sifatida aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, Yevropa Komissiyasining [4] Regional Innovation Scoreboard metodologiyasi asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan mintaqaviy innovatsion reyting tizimini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim davlat boshqaruvi organlari, xususiyl sektor hamda ilmiy hamjamiyat uchun umumiy baholash mezonlari va taqqoslanadigan indikatorlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar sifatida mintaqaviy innovatsion baholash jarayonida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, integral metodologik modelni kichik va o'rta biznes innovatsiyalariga moslashtirish hamda mintaqaviy innovatsion ekotizimlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga qaratilgan baholash metodologiyalarini yanada takomillashtirish muhim ilmiy yo'nalishlar sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD/Eurostat. (2018). Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. 4th ed. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264304604-en>.
2. Tidd, J., Bessant, J. (2018). Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. 6th ed. Wiley. <https://www.wiley.com/en-us/Managing+Innovation-p-9781119379454>.
3. World Bank. (2024). World Development Indicators — Uzbekistan. <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>.
4. European Commission. (2023). European Innovation Scoreboard 2023. Publications Office of the European Union. https://research-and-innovation.ec.europa.eu/statistics/performance-indicators/european-innovation-scoreboard_en.
5. Fagerberg, J., Mowery, D. C., Nelson, R. R. (eds.). (2005). The Oxford Handbook of Innovation. Oxford University Press. <https://academic.oup.com/edited-volume/27998>.
6. Charnes, A., Cooper, W. W., Rhodes, E. (1978). Measuring the Efficiency of Decision-Making Units. European Journal of Operational Research, 2(6), 429–444. [https://doi.org/10.1016/0377-2217\(78\)90138-8](https://doi.org/10.1016/0377-2217(78)90138-8).
7. Kaplan, R. S., Norton, D. P. (1996). The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business School Press. <https://hbswk.hbs.edu/item/the-balanced-scorecard-measures-that-drive-performance>.
8. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>.
9. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102. <https://doi.org/10.1086/261725>.
10. Cooke, P. (1992). Regional Innovation Systems: Competitive Regulation in the New Europe. Geoforum, 23(3), 365–382. [https://doi.org/10.1016/0016-7185\(92\)90048-9](https://doi.org/10.1016/0016-7185(92)90048-9).
11. Asian Development Bank. (2022). Uzbekistan: Economy. ADB Country Partnership Strategy. <https://www.adb.org/countries/uzbekistan/economy>.
12. UNIDO. (2022). Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. <https://www.unido.org/resources-publications-flagship-publications-industrial-development-report-series/idr2022>.
13. Solow, R. M. (1957). Technical Change and the Aggregate Production Function. The Review of Economics and Statistics, 39(3), 312–320. <https://doi.org/10.2307/1926047>.
14. Freeman, C. (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. Pinter Publishers. ISBN: 9780861879854. <https://www.pinterandmartin.com>.
15. World Economic Forum. (2023). Global Competitiveness Report 2023. WEF Publications. https://www3.weforum.org/docs/WEF_TheGlobalCompetitivenessReport2023.pdf.
16. Lundvall, B. Å. (ed.). (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter Publishers. <https://doi.org/10.7135/UPO9781843318903>.
17. Acemoglu, D. (2009). Introduction to Modern Economic Growth. Princeton University Press. <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691132921>.
18. UNDP. (2023). Human Development Report 2023–24: Breaking the Gridlock. <https://hdr.undp.org/system/files/documents/global-report-document/hdr2023-24reporten.pdf>.
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2023). Innovatsion faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlar. <https://stat.uz/>.
20. Camagni, R., Capello, R. (2013). Regional Innovation Patterns and the EU Regional Policy Reform: Toward Smart Innovation Policies. Growth and Change, 44(2), 355–389. <https://doi.org/10.1111/grow.12012>.
21. Barro, R. J., Sala-i-Martin, X. (2004). Economic Growth. 2nd ed. MIT Press. <https://mitpress.mit.edu/9780262025539>.
22. Dosi, G. (1988). Sources, Procedures, and Microeconomic Effects of Innovation. Journal of Economic Literature, 26(3), 1120–1171. <https://www.jstor.org/stable/2726526>.
23. World Bank. (2022). Uzbekistan Country Economic Memorandum: Seizing the Momentum. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/5e2f46f2-3f87-5d0f-b0b2-93a88e1b7eed>.
24. WIPO. (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the Face of Uncertainty. World Intellectual Property Organization. https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/2023/.
25. European Bank for Reconstruction and Development. (2023). Transition Report 2023–24: Transitions Big and Small. <https://www.ebrd.com/transition-report-2023-24>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>